

**JADIDCHILIKNING HARBIY TA'LIMGA
INTEGRATSIYALASHUVINING NAZARIY ASOSLARI: JADIDCHILIK
G'OYALARINING TALABALARNING INTIZOMI, SHAXSIY
JAVOBGARLIGI VA O'ZINI SAFARBAR ETISHIGA TA'SIRI.**

Хамракulov O'tkirjon Махмудович
Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti
mustaqil tadqiqotchisi

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ ДЖАДИДЗМА В
ВОЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ВЛИЯНИЕ ИДЕЙ ДЖАДИДЗМА НА
СТУДЕНЧЕСКУЮ ДИСЦИПЛИНУ, ЛИЧНУЮ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ
И САМОМОБИЛИЗАЦИЮ**

Хамракулoв Уткиржон Махмудович.
Ферганский государственный
Университет факультет военного
Обучения независимый исследователь

**THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE INTEGRATION OF
JADIDISM INTO MILITARY EDUCATION: THE INFLUENCE OF
JADIDISM IDEAS ON STUDENT DISCIPLINE, PERSONAL
RESPONSIBILITY AND SELF-MOBILIZATION**

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda harbiy xizmatchilardan shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yangi o'qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladigan dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Harbiy ta'lim tizimi o'z oldiga yuqori shaxsiy sifatlarga, fazilatlarga, intizomga, shuningdek noaniq va qiyin sharoitda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan professional kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yadi.

Shu nuqtai nazardan, XX asr boshlarida mamlakatlarda ta'lim tizimlarini yangilashda muhim rol o'ynagan jadidchilik — islohot harakati alohida qiziqish uyg'otmoqda. Jadidchilik ta'limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash, mas'uliyat va o'zini safarbar etish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta'lim darajasini oshirishi kutilmoqda.

Аннотация: В современном мире стала актуальной задача, требующая от военнослужащих разработки новых методов подготовки, направленных на всестороннее развитие личности. Система военного

образования ставит перед собой задачу подготовки профессиональных кадров, обладающих высокими личностными качествами, качествами, дисциплиной, а также способностью принимать решения в неопределенных и сложных условиях.

С этой точки зрения особый интерес представляет джадидистско-реформаторское движение, сыгравшее важную роль в обновлении систем образования в странах в начале XX века. Ожидается, что интеграция принципов джадидизма повысит уровень образования моих учеников за счет развития навыков критического мышления, ответственности и самомотивации.

Abstract: *In the modern world, a task has become urgent that requires military personnel to develop new training methods aimed at the comprehensive development of the individual. The military education system sets itself the task of training professional personnel with high personal qualities, qualities, discipline, as well as the ability to make decisions in uncertain and difficult conditions.*

From this point of view, the Jadidist-reform movement, which played an important role in updating education systems in countries at the beginning of the 20th century, is of particular interest. Integrating the principles of Jadidism is expected to enhance my students' educational attainment by developing critical thinking skills, responsibility, and self-mobilization.

Kalit soʻzlar: *Jadidchilik, maʼnaviy tushuncha, jasorat, maʼrifat, fidoyilik, ijtimoiy, siyosi, maʼrifiy harakat, uygʻonish mafkurasi, matbuotni ijtimoiysiy, millatning oʻzligi, vatanparvarlik, milliyozodlik, konservatizm, konsepsiya, avangard jadidlar.*

Ключевые слова: *Джадидизм, духовное понимание, мужество, просвещение, самоотверженность, социальное, политическое, просветительское движение, идеология пробуждения, пресса, общественно-политическая, национальная идентичность, патриотизм, национализм, консерватизм, концепция, авангардные джадиды.*

Key words: *Djadidism, spiritual understanding, mujestvo, enlightenment, samootverjennost, sotsialnoe, politicheskoe, prosvetitel'skoe dvijenie, ideology probujdeniya, pressa, obshchestvenno-politicheskaya, natsionalnaya identichnost, patriotism, nationalism, conservatism, concept, avant-garde djadidy.*

Jadidchilik 19-a oxiri – 20 a boshida paydo bo'ldi. Jadidchilar o'zini ushbu falsafaning tahlilchilari sifatida ham namoyon qildi. Mashhur ma'rifatparvar Ahmad Donish, shoirlar Furqat, Hamza, Ubaydulla Zavqiy, Muqimiy, Muhammad Bayoniy, Abay Qo'nonboyev va olim Cho'qon Valixonov islohotning hassos tarafdorlari bo'lgan, ular nafaqat ma'rifatda, qolaversa, turkiy xalqlar birligida ko'rgan. O'z safdoshlaridan ancha oldinlab ketgan va ma'rifatparvarlikdan yo'nalishidan siyosatga yo'nalishga o'tgan jadidlarchilar o'sha zaminda unib chiqqan. Biz jadidlar harakatini fenomen deb ataymiz, to'g'rimi? Agarda ularning mavjudligi juda oz vaqt oralig'i va muayyan siyosiy voqealar bilan cheklanmagan bo'lganada edi, bizlar buni kichik Renessans deb atagan bo'lar edim. Agar jadidlarchilar faoliyatini yana bir necha o'n yil davom ettirganida, juda yaxshi natijaga erishgan hamda aholi ularni yaxshi qabul qilgan, g'oyalari yaxshi tarqalgan bo'lar edi. Jadidchilikning o'ziga xosligi nimada? Avvalom bor, ularning aql-zakovati favqulodda yuksak rivojlangan Sharq va G'arb madaniyati haqida mukammal bilimga ega bo'lgan. Ularningi barchasi oliy diniy bilim, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy she'riyati, o'rta asrlarda yaratilgan falsafiy risolalarni o'qib va uqib, bu bilimni Sharqm va G'arb madaniyati yutuqlari bilan boyitgan. Ayni o'sha davrda jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilib bergan va bu ta'lim sohasini, umuman olganda, ma'rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan ular yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, darsliklar, gazetalar chop etgan, ilk teatr tashkil etgan, bu aholi uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yangilik bo'lib, juda katta ta'sir kuchiga bo'lgan va odamlar ongida inqilob yasagan.

Qrim yurtida yashab ijod qilgan Ismoil Gasprinskiyni jadidchilik asoschisi deb hisoblanadi. Bu jadidchining asosiy g'oyalari nimalar bo'lgan va nega o'sha g'oyalar Markaziy Osiyo qismida bunchalik yaxshi kutib olingan? Ha, Ismoil Gasprinskiy – jadidchilikning otasi, chunki u ma'rifatparvarlik faoliyatini Qrimda boshlab, shu bilan cheklanib qolgani yo'q. U gazetalarda turkiy xalqlarning siyosiy emas, ma'naviy jihatdan birlashishi zarurligi takrorlangan O'rta Osiyo jadidchiligi otasi deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy 1903 yilda ikkinchi marta qilgan hajini Rossiyani, xususan, boshqa Sharq mamlakatlarini o'rganish bilan omuxta qildi va o'sha yili Ismoil Gasprinskiy bilan uchrashdi. Shu sababli Gasprinskiyni Markaziy Osiyoda ham ushbu harakatning rahnamosi bo'lgan deb atasak bo'ladi. Gasprinskiy Buxoroga tashrif buyurganda, ushbu shahrdagi jadidchilar tashkil qilgan maktabga borib, hatto Buxoro amirm Olim xon bilan bunday maktablarning foydasi juda kattaligi va

amir esa ushbu maktablar rivojlanishiga yordam berishi zarurligi haqida gaplashganlari bizga ma'lum. O'sha davrda esa Behbudiy, Fitrat va boshqa yetakchi jadidchilar yetishib chiqdi. Jadidlar o'z madaniyatlari bilan cheklanib qolmaslikni, xalqni qoloq bo'lib qolgani sabablii G'arbning texnologik yutuqlarini jalb etishni ko'p taklif qilganlar. Agarda biz hozir yevropaliklarga o'xshab kiyinib, charmdan tikilgan poyabzal kiyib yurar, so'ngra hayvon terisidan tikilgan oyoq kiyim kiyganlikda ayblar edilar, lekin ular esa bunga parvo qilmas edi. Jadidchilar, agar biz G'arbning madaniy va texnologik yutuqlarini bilmasak, kelajagimiz barbod bo'ladi, deb hisoblagan.

Илоҳиётшунослик нуқтаи назаридан баҳо берилиши алоҳида долзарблик касб этган, айни баҳо мусулмонларнинг янги жараёнларда қатнашишини оқлашга, уларга ижозат этилишига имкон берган. Ўша даврнинг миллий тараққийпарварлари ушбу диний бағрикенгликнинг чин маънодаги ифодачилари эди. Уларнинг диний билими, дунёқараши ва интилишлари билан бунга тўла ҳаққи бўлган. Ўтмишнинг мадан ий капиталига, саёҳат қилиш, Европа, шунингдек, ривожланган мусулмон мамлакатларининг саноат ва маданият соҳасидаги ютуқлари, турли зиёлилар ва ҳар хил ижтимоий ҳаракатлар вакиллари билан танишиш имкониятига эга бўлган жадидлар Туркистон қанчалик тараққиётдан ортда қолиб кетганини жуда яхши англаётган эди. Америкалик тарихчи Адиб Холид фикрича, Ўрта Осиё жадидчилиги мусулмон модернизми чорчўплари билан маҳаллийлаштирилган эди.

Biz jadidchilikni musulmon modernizmi deb atashimiz mumkinmi? Yo'q, ammo qisman "ha" deb javob bersa ham bo'ladi, chunki ularning faoliyati ancha-muncha qismi aholiga Alloh bandasiga "o'qi" deb aytganini isbotlashdan iborat bo'lgan. Uning ritorik tuzilmasi ildizlari O'rta Osiyoning musulmon an'anasiga borib taqaladi, shuning uchun jadidlar, an'anaga ko'ra, islom diniga tayangan. Hozirgi islom dinining haqiqiy mazmuniga bog'langan, faqat barcha o'tgan asrlar davomida paydo bo'lgan o'simtalaridan tozalangan islomdini musulmonlari o'z farovonligini ta'minlashi mumkin edi. Jadidchilarning g'oyasi shu bo'lgan. Dunyoga yangicha nazar bilan boqar ekan, islomni tushundi, musulmonlik nima ekanini angladilar. Ularning jamiyatni yangilash nazariyasida taraqqiyotda juda oldinlab ketgan Yevropa bilan yanada yaqinlashish, eng yaxshi va ilg'or yutuqlarini o'zlashtirish haqidagi masalalar jiddiy o'rin tutgan edi. O'sha davrida inqirozli vaziyatdan chiqish eng avvalo Yevropa tajribasidan foydalangan eng asosiy madaniy islohotlar o'tkazishda

ko'rilgan edi. Abdurauf Fitratning "Munozara" kitobi va hindistonlik sayyohining tilidan yozilgan manbalarda shu holatni ko'rish mumkin. 2-nafar chet ellik Qur'onning solih nuqtadonlari sifatida tasvirlanadi hamda muallif ular nomidan Buxoroda va Turkistongi ta'lim, armiyani boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga baho beradi. Fitrat bir asarida bir yevropalik – fransuzni, ikkinchisida esa O'rta osiyolik bo'lmagan hindni behuda tanlamagan va ular nomidan taraqqiyotning obyektiv sabablari va unga chorlovchi Qur'on oyatlari haqida bekorga fikr yuritmaganlar. Uning aytishicha bu odamlarga, yoshlarga, islom inson qo'li tegadigan har bir narsa bilim talab qiladigan din ekanini ko'rsatib berish uchun juda yaxshi usuldir. Jadidlar boshqa, ayniqsa, musulmonlari bo'lmagan madaniyatlar va dinlarga nisbatan salbiy qarashlar bilan qaramasligini ko'rsatishni yana bir karra isbotlash va tasdiqlash uchun tez-tez Yevropa va Osiyo tarixiy manbalarga tayangan holda ijod qilganlar. Tarixda o'sha zamon taraqqiyot davomida madaniyatlarning meros bo'lib avlodlardan avlodga o'tishi, ularning o'zaro bir-biriga aloqadorligi, qadriyatlarining biridan ikkinchisiga to'la qonli o'tishi va bir-biriga kirib borishi haqidagi nazariya bag'rikenglik tashviqotining asosiy vositasi bo'lib xizmat qilganini takidlab o'tishgan. O'sh davring jdadachilaridan Fitrat bunday degan edi: "Taassufki, agar bir yo'qotilgan madaniyatimizni, tamaddunimizni qaytarish uchun, hech bo'lmasa, bir harakat qilmasak, ulamomiz, sen kofir bo'lding, deb aytadi va bizga xalaqit bera boshlaydi" deb takidlab bergan edi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining zamonidan shunchalik oldinlab ketgan kishi ediki, u xatto Bahouddin Naqshband maqbarasiga borganda, uning atrofida shunchalik ko'p masjid qurilganini ko'rib, o'sha vaqt uchun jasorat bo'lgan bir gapni aytadi: "bir musulmon uchun bunchalik ko'p masjidlarning keragi yo'q, unga ibodat qilishi uchun bitta joynamozning o'zi yetadi. Bunchalik ko'p masjid qurgandan ko'ra, unga sarflangan mablag'ga farzandlarimizni chet elga o'qishga yuborish vaqti kelmadimikan?". Ularning g'oyalari, islom dinini isloh qilish boshqa dinlarga nisbatan bag'rikenglikni tarbiyalash va G'arb davlatlaridan bilim o'zlashtirishni o'z ichiga olgan. Ma'lumki, jadidlarning nashiriyotlari ular harakat qilishi uchun foydali vosita vazifasini o'tagan. Bunday nashrlarni kimlar asosan o'qigan? Umuman, jadidlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash qay tarzda bo'lgan. Maktablar juda ko'p narsa berayotgan edi. Albatta, aholi asta-sekin ota-ona savod chiqarish uchun farzandini 40-kun o'qitishi kerakligini tushuna boshladi, oddiy maktabda esa bola 10-yil o'tiradi, madrasada esa 10-15 yil o'qiydi va faqat Qur'onni yod oladi. Yana maktabda xivich bilan savalash tizimi mavjud edi.

Jadidlar maktablarida tafakkuri rivojlangan va bu maktablarning istiqbolini tushungan kishilar farzandlari ta'lim olgan. Jadidlar maktablarini Yevropa maktablariga bevosita o'xshash bo'lgan, deyish qiyin; lekin ularda o'sha maktablarning dastlabki namunalari bor edi. Dastlab darsliklar bo'lmagan sababli. Kitoblar va o'quv-qo'llanmalar va boshqa o'qitish vositalari Rossiyadan olib kelinar edi. Jadidlar xarakatining otasi Ismoil Gasprinskiy bu masalada katta yordam ko'rsatgan. Ular o'zi darsliklar chop qilishga o'tgan. Munavvarqori va Behbudiy juda ko'p darsliklar yozgan. Masalan, matematika, adabiyot, geografiya bo'yicha darsliklarni olaylik. Albatta, ular qaysidir darajada Rossiya davlatining darsliklaridan o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin, ammo shunga qaramay, bu juda katta olg'a siljish edi. Jadid maktablari sinflarida globuslar turgan. Bu eski maktablar bilan solishtirganda, yer va osmonday farq qilar, butunlay yangi narsa edi va albatta, ajoyib natijalar bergan. Rus tili borasida shuni aytish joyizki, ularning ko'pchiligi rus tilini yaxshi bilgan. Til konsepsiyasi Behbudiyning "Bir til emas, to'rt til kerak" deb nomlangan maqolasida ochib berilgan, ya'ni unga ko'ra, uning takidlashicha hozirda bizlar Rossiya imperiyasida yashayotganimiz sababli, ayniqsa, rus tilini bilishimiz zarur. Biz o'zimizning harakat taktikasini ishlab chiqishni tushunib olishimiz shart. Shuning, uchun xam jadid maktablarida rus tili ham o'qitilgan. Ular bu bilim orqali Yevropa adabiyotiga juda qiziqqan. Bu esa hozirda barcha davlatlarda mavjud bo'lganidek o'zining qurolli kuchlarini taktik xarakatlarini rejalashtirish, olib borish va tahlil qilishda juda katta uustunliklar berishini takidlashimiz joyiz.

1917 yildan so'ng o'sha davr hokimiyati bilan hamkorlik qilgan jadidlar Oktabrda davlat to'ntarishidan so'ng ma'rifatparvarlik va ta'lim muassasalarida ishlagan. Yoshlarni chet ellarga o'qishga jo'natish davom etavergan. Bu ishda ularning xizmatlari katta edi. O'sha davrda chet-elga o'qishga yuborilgan yoshlarning hammasi ham o'sha oliy ta'lim muassasasini tamomlay olmaganlar. Ular orasida Saratov universitetini huquqshunoslik ixtisosi bo'yicha bitirgan Ubaydulla Xo'jayev ham bor edi. Bu shaxs xam o'z davrining jadidachilaridan edi. Bundan shu narsa ayonki o'z davrining ziyolilari o'z farzandari, halqini yoshlarini rivojlangan Yevropa davlatlarida ta'lim olish ularni bu sohada o'z ishiining mutaxassisi qolaversa o'z tahsil olgan yurtning insonlarini madaniyati, urf-odatlarini va yutuqlarini andoza shaklida olishi orqali o'z yurtini kelajakda o'sha tarraqiyot etgan davlatlar qatorida bo'lishiga sababchi bo'lganlar. O'sha davrda siyosiy vaziyat juda kesin edi va ko'plab

jadidlarning siyosiy qarashlari turlicha bo'lgani ajablanarli emas. Jamiyatni o'zgartirish konsepsiyasini yarata oldilar va konsepsiya barcha masalalarni qamrab oldi. Ta'limning yangi shakllarini yaratdi. Ular – ehtimol kichik ko'rinishda bo'lgandir, ammo – butunlay yangi madaniyat yaratdi. Odamlar ongida ayollarga nisbatan kichik bo'lsa-da, o'zgarish yasay bildi, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Maxmud xo'ja Behbudiy hajga borganida Bayrut universitetini ziyorat qiladi. Hayratga tushib, “Ey olloh, bularning laboratoriyalarini qaranglar”, deb yozadi. U kimyo laboratoriyasi bilan tanishadi. “Bu yerda qanday talabalar va qizlar o'qiyotganini qarang! Yutuqlar ham shuncha bo'ladimi! Nega bu musulmon mamlakatida bunday universitet bor, biz ham musulmon mamlakatimiz, lekin Turkistonda oliy darajadagi birorta ham, ha-ha, birorta ham oliy ta'lim muassasasi yo'q.

Xulosa:

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanga xolda shu takidlab o'tish joyizki. Biz hozirgi davrda talabalarni jadidlar xarakati ularning ta'limotiga yondashgan holda ular olib borgan xarakterlar jarayonida o'sha davrdagi halqni bilim darajasi qashshoq xolatda bo'lganligi sababali, tashqi dunyodan kelgan qo'shtirnoq ichidagi targ'ibotchilar ya'niy Chor rossiya vakillari bundan o'zlarning jirkanch ishlarini amalga oshirishga juday qulay ekanligini tushunishgan edilar. Afsus, jadidlar xarakati ularning yuqorida qay etilgan siyosiy xarakterlarini to'la qonli amalga oshirishiga bir oz muddat to'sqinlik qilgan bo'lsalarda. Ushbu qisqa vaqt ichida o'z halqini ongini, yangi zamonaviy dunyoviy bilim olishlariga, bu orqali o'z vatanlarini dunyodagi ravnaq va tarraqiyot etgan davlatlar orasida bo'lishini o'z oldilariga maqsad qilib qo'yanlar edi. Bu sharafli g'oya yo'lida halqni bir tanu bir jon bo'lib xarakter qilishga davat etgan edilar.

“FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR”

1. O'zbek sovet entsiklorediyasi. 2-jild. T., 1979.
2. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, 1990-yil 19, 26-yanvar.
3. Qosimov Behbudiy Karvonboshi. “Yoshlik” jurnali, 1990-yil, 1-son.
4. Aliev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. T., 1994.
5. Ahmedov S. O'limdan qo'rqmagan mutafakkir. „Sovet O'zbekistoni san'ati“, 1989-yil, 2-son.

6. Rizaev Sh. "Padarkush" yohud Samarqand tarixidan lavhalar". "Vatan" gazetasi, 1994-yil, 39-son.
7. N. To'xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009 — 784-bet.
8. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. "Zabarjad media", 2022 432-bet.
9. Politicheskaya jizn russkix musulman do fevralskoy revolyutsii, Oksford, 1987;
10. Fayzulla Xo‘jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar, T., 1997;
11. Fayzulla Xodjayev. 100 bet, Navoi, 1996;
12. O‘zbekistonning yangi tarixi, 2kitob [O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida], T., 2000;
13. Eshonov O. E., Fayzulla Xo‘jayev, T., 1973;
14. Hasanov M., Fayzulla Xo‘jayev, T., 1990;
15. Baqoyev M., Fayzulla Xo‘jayevjurnalists va publitsist, T., 1992;
16. Rajabov K, Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash, T., 2002.